

**XALQARO HUQUQDA FUQAROLIGI BO‘LMAGAN SHAXSLAR
KATEGORIYASI**

*Qashqadaryo viloyati
adliya boshqarmasi boshlig‘i
Nuriyev Salohiddin Samadovich*

Annotatsiya: ushbu maqolada xalqaro xususiy huquqning eng muhim subyektlaridan biri bo‘lgan fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar tushunchasi va ularning huquqlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: fuqarolik, inson huquqlari, milliy qonunchilik, fuqaroligi bo‘lmagan shaxs.

**КАТЕГОРИЯ ЛИЦ БЕЗ ГРАЖДАНСТВА ПО
МЕЖДУНАРОДНОМУ ПРАВУ**

*Кашкадарьинская область
глава департамента юстиции
Нуриев Салахиддин Самадович*

Аннотация: в данной статье с научной и теоретической точки зрения анализируется понятие лиц без гражданства, одного из важнейших субъектов международного частного права, и их прав.

Ключевые слова: гражданство, права человека, национальное законодательство, лицо без гражданства.

Chet el fuqarolarining huquqiy maqomini o‘rganish natijasida shunga amin bo‘lish mumkinki, muayyan mamlakat fuqarosi bo‘lgan jismoniy shaxsdan tashqari hech qanday fuqarolikka yani muayyan mamlakat yuridiksiyasiga mansub bo‘lmagan jismoniy shaxslar kategoriyasi borligiga e‘tibor qaratish lozim. Bunday jismoniy shaxslarning maqomi, birlamchi, xalqaro huquq doirasida, ikkilamchi, davlatlarning milliy qonunchiligi asosida hal etiladi. Xalqaro huquq doirasida bu shaxslarning huquqiy maqomiga to‘xtalib o‘tsak, bu shaxslarning, aslida, kimligi, xalqaro doirada qanday himoyaga egaligi va bu shaxslarning o‘zgaruvchan fuqarolik holatlariga mansubligi, bu mansublik har bir mamlakat tomonidan o‘zlarining milliy qonunchiliklari tomonidan o‘rnatilishi kabi faktlarga e‘tibor berishimiz lozim.

Ikkinchi jahon urushi va milliy davlatlarning qayta tuzilishi fuqaroligi bo‘lmagan aholi sonining ko‘payishini keltirib chiqardi, mana shunday murakkab davrda esa bu kabi aholining, insonlarning huquqlarini himoya qilish asosiy

masalalardan biri sifatida ijtimoiy amaliyotda, xalqaro doirada jiddiy muammoga aylandi, bu esa 1948-yildagi Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 15-moddasida belgilab qo'yilgan normalarni qabul qilish va jahon mamlakatlari uchun umumiy ko'rsatmalar berishga olib keldi. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi:

15-modda: Har bir insonning fuqaro bo'lish huquqi bor. Hech kim o'zboshimchalik bilan o'z fuqaroligidan yoki o'z fuqaroligini o'zgartirish huquqidan mahrum qilinishi mumkin emas.

“Har bir inson fuqarolik huquqiga ega” va shunday bo'lishi kerak, deb belgilanishi va o'z fuqaroligidan o'zboshimchalik bilan mahrum qilinmasligi to'g'risidagi bunday normalarning xalqaro doirada qabul qilinishi XX asr voqealiklarining eng muhimi sifatida tan olinishi lozim. Fuqarosizlik dunyoning har bir mintaqasida mavjud, biroq hukumatlar tomonidan tan olinmasdan, asosan “yashirin” muammo bo'lib qolmoqda.

Lekin dunyoning rivojlangan mamlakatlari tomonidan bu muammoni yechimini topish va ularni o'z milliy yurisdiksiyaga o'tkazish masalasi katta-katta qadamlar bilan olib borilyapti. Masalan, Amerika Qo'shma Shtatlari Davlat departamenti tomonidan Amerikadagi ba'zi fuqarolikka oid hujjatlariga tegishli o'zgartirishlar kiritilyapti, aynan mana shu tashkilot tomonidan fuqaroligi bo'lmagan shaxs tushunchasiga berilgan ta'rifni ko'rib chiqishimiz mumkin.

Fuqaroligi bo'lmagan shaxs - har bir davlatning milliy qonunchiligi asosida o'sha insonning fuqaroligi hukumat va jismoniy shaxs o'rtasidagi doimiy siyosiy huquqiy aloqani nazarda tutmaydigan, de jure asosida fuqaro bo'lgan yoki qonuniy fuqarolikka ega bo'lmagan shaxsdir. Ular har qanday davlatning milliy qonunchiligida fuqarolar sifatida tan olinmaydi, bir yoki bir nechta mamlakatning qonunlari bo'yicha fuqarolikka da'vo qilishadi.

Fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning huquqiy maqomi va ba'zi aspektlariga xos bo'lgan an'anaviy savollar mavjud va ushbu savollarni birma-bir ko'rib chiqishimiz maqsadga muvofiqdir.

Dunyo bo'yicha fuqarolikka ega bo'lmagan shaxslar qanchani tashkil etadi?

2019 yil oxirida, BMTning Qochqinlar (qochoqlar) bo'yicha Oliy komissari (qochqinlar ko'payishini oldini olish va kamaytirish uchun vakolatli agentlik) butun dunyo bo'ylab 4,2 million fuqaroligi bo'lmagan shaxslarni hisoblab chiqdi, ammo aslida haqiqiy raqam bundanda ko'p bo'lishi mumkin. Ularning taxminiy miqdori 10-12 millionni tashkil etishi mumkin.

Fuqarosizlikni keltirib chiqaradigan sabalar qaysilar?

Quyida asosiy asosiy sabablar mavjud:

- ✓ tug'ilishni ro'yxatga olish va tug'ilganlik to'g'risidagi guvohnomalardagi kamchiliklarning mavjudligi;
- ✓ fuqaroligi bo'lmagan ota-onadan tug'ilganlik holatlari;

- ✓ siyosiy o‘zgarishlar va hududlar kesimida fuqarolar transformatsiyasi va buning natijasida sobiq mamlakat fuqarosining milliy huquqiy maqomining o‘zgarishi ;
- ✓ ma’muriy nazorat, protsessual muammolar, ikki mamlakat qonunlarining mojarosi yoki rasmiy yozuvlarni yo‘q qilish;
- ✓ turli mamlakatlar fuqaroligiga mansub bo‘lgan yoki bo‘lmagan juftliklar tomonidan nikohning davomiyligi davrida yoki nikohning tugatilishi natijasida millatning o‘zgarishi;
- ✓ milliy ozchiliklarga nisbatan kamsitilishning mavjudligi;
- ✓ fuqarolikning sotib olinishini ta’minlovchi qonunlarning mavjud emasligi;
- ✓ ayollarning farzandlariga nisbatan fuqarolik huquqini ro‘yobga chiqaradigan qonunlarning mavjud emasligi (ayollar huquqlarining cheklanganligi);
- ✓ qonuniy nikohsiz va tranzit paytida tug‘ilgan bolalar bilan bog‘liq qonunlarning ikki tomonlama tartibga solinmaganligi;
- ✓ qonuniy fuqarolikka ega bo‘lgan jismoniy shaxslar tomonidan, birinchi navbatda, fuqarolikdan mahrum qilish yoki voz kechish.

Fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar qanday muammolarga duch kelyapti?

Fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar huquqiy himoyaga va saylov va ovoz berish huquqiga ega emas, ular ko‘pchilik hollarda ta’lim, ish, sog‘liqni saqlash, tug‘ilish, nikoh yoki o‘limni qayd etish va mulk huquqi kabi insonning asosiy huquq va erkinliklaridan mahrum etilgan. Fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar, shuningdek, sayohat cheklovlari, ijtimoiy ayirmachilik va jinsiy va jismoniy zo‘ravonlik, ekspluatatsiya, odam savdosi, majburan ko‘chirish va boshqa suiiste’molliklar va mana shu turdagi ijtimoiy adolatsizliklarga duch kelishi mumkin.

Fuqarosizlikni qanday oldini olish yoki yumshatish mumkin?

Fuqarosizlikning oldini olish va kamaytirish bo‘yicha asosiy harakatlar quyidagilardan iborat:

- ✓ fuqaroligi yo‘qligi to‘g‘risida xabardorlikni shakllantirish va fuqaroligi bo‘lmagan aholini aniqlash.
- ✓ tug‘ilganlikni umumiy ro‘yxatga olish va fuqarolik hujjatlarining boshqa shakllarini amaliyotga joriy qilish.
- ✓ quyidagilar orqali fuqarolikka qabul qilish yoki fuqarolikka kirishni oshirish:
- ✓ fuqarolik to‘g‘risidagi qabul qilinayotgan qonunlarda kamsitishni bartaraf etish; va fuqarolarni ro‘yxatga olish bo‘yicha ma’muriy islohotni amalga oshirish.

Fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarni himoya qilish bo‘yicha xalqaro shartnomalar bormi?

Fuqarosizlikka oid xalqaro huquqiy hujjatlarga quyidagilar kiradi:

- ✓ 1948-yilgi Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, (15-modda);
- ✓ 1954-yilgi Fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning maqomi to‘risidagi konvensiya;
- ✓ 1961-yilgi Fuqarosizlikni qisqartirish va kamaytirish to‘g‘risidagi konvensiya;

- ✓ 1966-yilgi Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt, 24- modda;
- ✓ 1989-yilgi Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya, 7-modda;
- ✓ 1997-yilgi Fuqarolik to‘g‘risidagi Yevropa konvensiyasi;

Fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini qanchalik darajada xalqaro huquq doirasida o‘z o‘rnini topganini mana shu misollar yordamida ko‘rib chiqishimiz mumkin. Bu xalqaro me‘yorlar orasida 1954-yilgi “Fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning maqomi to‘g‘risidagi konvensiya” alohida ahamiyatga ega, quyida mana shu konvensiyaning diqqatga sazovor joylari bo‘yicha ma‘lumotlar mavjud.

Ushbu konvensiyaning 1-moddasida fuqaroligi bo‘lmagan shaxsga ta‘rif berilgan unga ko‘ra, hech qaysi davlatning milliy qonunchiligi asosida fuqarolikka ega bo‘lmagan jismoniy shaxs fuqaroligi bo‘lmagan shaxs hisoblanadi.

Ushbu konvensiyaning 2-moddasi esa umumiy majburiyatlarni ko‘rsatib beradi. Unga ko‘ra, har bir fuqaroligi bo‘lmagan shaxs o‘zi bo‘lib turgan mamlakat oldidagi majburiyatlarga ega. Bular quyidagilar:

- ✓ xususan, uning qonunlari va qoidalarini hurmat qilish;
- ✓ shuningdek, jamoat tartibini saqlash bo‘yicha ko‘rilayotgan chora- tadbirlarga bo‘ysunish;
- ✓ ushbu konvensiyaning 3- moddasida kamsitilishga yo‘l qo‘yilmasligi normalari belgilab berilgan. Unga ko‘ra, Ahdlashuvchi Davlatlar ushbu Konvensiya qoidalarini ularga nisbatan qo‘llaydilar. Bunga asosan, fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarni irqiy, diniy yoki biror bir millatga mansubligi nuqtayi nazardan kamsitilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Aslini olganda, bir-biriga zid bo‘lgan fuqarolik qonunlari fuqarolik yo‘qligining asosiy sabablaridan biridir. Fuqarolik, odatda, ikkita usuldan biri orqali olinadi, ammo bugungi kunda ko‘plab davlatlar ikkala usulni ham tan oladilar:

Jus soli (tuproq huquqi) muayyan davlat hududida tug‘ilish orqali fuqarolikka ega bo‘lgan rejimni anglatadi. Bu Amerikada keng tarqalgan. Jus sanguinis (qon huquqi) - bu ham fuqarolikdagi asosiy rejim bo‘lib, unga ko‘ra fuqarolik nasl-nasab yo‘li bilan, odatda, fuqaro bo‘lgan ota-onadan olinadi. Yevropa, Osiyo, Afrika va Okeaniyadagi deyarli barcha davlatlar jus sanguinis tamoyili asosida tug‘ilishda fuqarolikni beradi.

Ko‘plab mamlakatlarda jus sanguinis tamoyilini qo‘llashda jinsiy cheklovlar mavjud. Garchi ko‘pgina davlatlar bolaning qayerda tug‘ilishidan qat’i nazar, ota-ona nasli orqali fuqarolikni olishga ruxsat bergan bo‘lsa-da, ba’zilar ayol jinsidagi fuqarolarga o‘z farzandlariga fuqarolik berishga ruxsat bermaydi. 27 mamlakatda, asosan Afrika va Osiyoda ayollar o‘z millati va fuqaroligini avlodlariga o‘tkaza olmaydi. Agar ota fuqaroligi yo‘q, noma‘lum yoki boshqa sabablarga ko‘ra tug‘ilgan

farzandga fuqarolikni bera olmasa, bu fuqarolik yo'qligiga olib kelishi mumkin. Taxminan, 2015 yildan boshlab ba'zi mamlakatlarda fuqarolik qonunlarida jinsiy betaraflik (tenglik) foydasiga o'zgarishlar bo'ldi, jumladan, Jazoir, Marokash va Senegaldagi islohotlar, bu va boshqa joylarda o'zgarishlar. Masalan, Jazoir 2005 yilda o'zining fuqarolik kodeksiga o'zgartirish kiritib, jazoirlik ona yoki otaga Jazoirda yoki undan tashqarida tug'ilgan bolalarga Jazoir fuqaroligini berish asoslari yaratildi. Bundan tashqari, Ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiya fuqarolikni berishda jinsga asoslangan kamsitishni ta'qiqlaydi.

Fuqarosizlik ko'pincha kamsitishning ko'plab shakllari va inson huquqlari buzilishi jarayonlari bilan qo'shib ketadi va bir joydan ikkinchi bir joyga ko'chib o'tish sababli katta demografik muammo hisoblanadi. Garchi fuqaroligi bo'lmagan (shaxslar) odamlarning aksariyati o'zlari tug'ilgan mamlakatda qolsalar ham, ba'zilari tark etib, migrant yoki qochqinga aylanadi. Qochqinlar maqomi to'g'risidagi 1951-yilgi Konvensiyaga muvofiq, qochqin bo'lgan, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ushbu hujjat bo'yicha himoyalani huquqiga ega. Agar shaxs ham qochqin, ham fuqaroligi yo'q bo'lsa, ikkala maqom turi ham aniq tan olinishi kerak. Shunga o'xshab, agar muomala standartlari qo'shimcha himoya shakli, shu jumladan, qaytarib yuborishdan himoya qilish uchun taqdim etilsa, davlatlar ushbu himoyaga mos keladigan fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga nisbatan ushbu standartlarni qo'llashlari kerak.

Garchi 1951 yilgi Konvensiya odatda shaxslarga 1954-yilgi Konvensiyadan (jumladan, qaytarilishdan himoyalani) ko'proq huquqlar bergan bo'lsa-da, qochqinlik maqomi to'xtatilgan shaxs har doim ham fuqarolikka ega bo'lmasligi va 1954 yilgi Konvensiyaga muvofiq, xalqaro himoyaga muhtoj bo'lishi mumkin. Davlat organlari tomonidan fuqaroligi bo'lmagan shaxs deb tan olinishi boshqa huquqlarning amalga oshirilishiga ham yordam berishi mumkin. Masalan, hech qanday fuqarolikka ega bo'lmagan mamlakatda (ya'ni, boshpana bergan mamlakatda) tug'ilgan qochqinlarning farzandlari 1961-yildagi Fuqaroliksizlikni qisqartirish to'g'risidagi konvensiyaga binoan (ahdlashuvchi mamlakat tomonidan) va inson huquqlari bo'yicha mintaqaviy hujjatlarga muvofiq o'zlari tug'ilgan mamlakat fuqaroligini olish huquqiga ega.

Favqulodda vaziyatlarda aholining bir mamlakatdan boshqasiga o'tishi qabul qiluvchi mamlakat fuqarolari bo'lgan odamlarni, masalan, qaytib kelgan qochqinlar va muhojirlarni o'z ichiga olishi mumkin, ularning ba'zilari uzoq vaqt davomida chet elda bo'lgan yoki hatto chet elda tug'ilgan bo'lishi mumkin. Qurolli to'qnashuvlar va boshqa zo'ravonlik holatlari tufayli ko'chirilish sodir bo'lsa, bunday shaxslarning ahvoli qochqinlarnikiga o'xshab qolishi mumkin, chunki ularning fuqaroligi hujjatlashtirilmagan bo'lishi va ularga yetib borishda yordam beradigan ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tarmog'i bo'lmasligi mumkin. Shu sababli, qabul qiluvchi

mamlakat fuqarolarini kelganlarida aniqlash va fuqaroligi yo'qligining oldini olish uchun BMTning Qochqinlar bo'yicha oliy komissarligi o'z mandati ostida ularning fuqaroligini tasdiqlovchi hujjatlarni olishga yordam berish zarur.

Shu maqsadda favqulodda vaziyatlarda fuqaroligi bo'lmagan shaxslarni identifikatsiyalashni osonlashtirish bo'yicha chora-tadbirlar ko'rilishi, ularning kelib chiqish mamlakati qayd etilganda va fuqaroligi "yo'q/fuqaroligi yo'q" sifatida qayd etilishini ta'minlash fuqaroligi bo'lmagan shaxslarni yoki fuqarolik yo'qligi xavfi ostida bo'lgan shaxslarni prima facie guruhini aniqlash asosida aniqlash mumkin. Bu guruh a'zolarining fuqaroligi yo'qligi to'g'risida 1954-yildagi Fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning maqomi to'g'risidagi konvensiyaning 1-moddasida ko'rsatilgan fuqaroligi bo'lmagan shaxs ta'rifiga prima facie javob beradigan aniq ob'yektiv ma'lumotlar mavjud bo'lsa, maqsadga muvofiq bo'lishi mumkin. Shaxsni prima facie fuqaroligi yo'q deb hisoblash uchun asosli asoslar mavjud bo'lganda (masalan, u fuqaroligi bo'lmagan ozchilik aholiga mansub bo'lganligi sababli), shaxsning fuqaroligi "yo'q/fuqaroligi yo'q" sifatida qayd etilishi kerak. Agar shaxsning millati noaniq bo'lsa, kuzatuvni osonlashtirish uchun bu belgilanishi kerak.

Fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning maqomi to'g'risidagi 1954-yilgi Konvensiyaning 1-moddasida ko'rsatilgan ta'rifga ko'ra, shaxsning fuqaroligi yo'qligini individual aniqlashga kelsak, BMTning Qochqinlar bo'yicha Oliy komissarligining asosiy roli davlatlarga fuqaroligi yo'qligini aniqlash tartib-qoidalarini o'rnatishda texnik yordam ko'rsatishdan iborat. BMTning Qochqinlar bo'yicha Oliy komissarligi davlatlar tomonidan o'tkaziladigan yangi tartib-qoidalarini ishlab chiqish bo'yicha maslahatlar berishi va mavjudlarini yaxshilashga hissa qo'shishi mumkin. BMTning Qochqinlar bo'yicha Oliy komissarligi fuqaroligi yo'qligini aniqlash bo'yicha organlar tomonidan boshqa davlatlar organlari bilan o'tkaziladigan so'rovlarni osonlashtirishi mumkin va fuqarolik qonunlari va amaliyoti bo'yicha axborot resursini shakllantirish mumkin. 1961-yilgi Fuqaroliksizlikni qisqartirish to'g'risidagi Konvensiyaning 11-moddasiga muvofiq, BMTning Qochqinlar bo'yicha Oliy komissarligi shaxsning fuqaroligiga oid da'volarini ko'rib chiqish va tegishli davlat organiga taqdim etishda faol rol o'ynashi lozim.

Favqulodda vaziyatning dastlabki bosqichlarida, odatda, davlatlar uchun keskin chora-tadbirlar o'tkazish mumkin bo'lmaydi. Shu bilan birga, qochqin maqomini aniqlashning individual tartib-qoidalarini amalga oshirish zarur va maqsadga muvofiq deb topilgan taqdirda, fuqaroligi bo'lmagan shaxslarni yoki fuqarolik yo'qligi xavfi ostida bo'lgan shaxslarni aniqlash tartib-qoidalarini, shu jumladan, ro'yxatga olishning birinchi bosqichida bunday holatlarni aniqlash tartiblarini ham ko'rib chiqish kerak. Jismoniy shaxsning fuqaroligi yo'qligi yoki fuqaroligi yo'qligi xavfi borligini qo'shimcha tekshirish qo'shimcha chora tadbirlar davomida yoki qochqin emasligi aniqlangan shaxslar uchun qo'shimcha chora tadbirlardan keyin o'tkazilishi mumkin.

Agar qo‘shimcha chora-tadbirlarni davlat amalga oshirishi mumkin bo‘lsa, BMTning Qochqinlar bo‘yicha Oliy komissarligi bu borada barcha zarur texnik yordam ko‘rsatishi kerak.

Qabul qiluvchi mamlakat fuqarosi bo‘lishi mumkin bo‘lgan shaxslarni imkon qadar tezroq aniqlash va zarur bo‘lganda, tegishli organlar tomonidan ularning fuqaro sifatida tan olinishi va hujjatlashtirilishiga yordam berish muhimdir. Ushbu shaxslarni qochqin sifatida noto‘g‘ri ro‘yxatga olish ba‘zi hollarda ularning qabul qiluvchi davlat fuqarosi sifatida tan olinishiga zarar etkazishi mumkin va agar ular boshqa davlat fuqaroligiga ega bo‘lmasa, bu ularni fuqaroliksiz qoldirishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023y.
2. Xalqaro xususiy huquq: Darslik./ Mualliflar jamoasi // y.f.d., dots. I.Rustambekov umumiy tahriri ostida. T.: TDYU, 2019. - 354 bet.
3. Bronwen Manby, Struggles for Citizenship in Africa, 2009.
4. Siegelberg, Mira L. 2020. Statelessness: A Modern History. Harvard University Press.
5. Somers, Margaret. 2008. Genealogies of Citizenship: Markets, Statelessness, and the Right to Have Rights. Cambridge University Press, ISBN 978-0-521-79394-0